XALQ DEPUTATLARI TO‘RTKO‘L TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 12 - aprel VI-60-39-13-190-K/23 To‘rtko‘l tuman hokimligi

To‘rtko‘l tumanida yangidan tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga nom berish to‘g‘risida

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2022-yil 18-noyabrdagi 02-713-sonli kelishim xatiga asosan To‘rtko‘l tumanida yangidan tashkil etilgan “Ziyokor”, “Yashnaobod”, “Nurliyo‘l”, “Yakkatol”, “Miskin”, “Tozabo‘zyop”, “Turkmanko‘li”, “Yaxtilik”, “Yangihayot”, “Nurota”, “Bazirgan”, “Bahor” mahallala fuqarolar yig‘inlarining nomlarini tasdiqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar,qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarori hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2014-yil 14-martdagi “Shaharlar, posyolkalar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 271-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi” Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari To‘rtko‘l tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022-yil 20-dekabrdagi 08-11381-sonli ekspertiza xulosasiga asosan To‘rtko‘l tumanida tashkil etilgan 12 ta mahalla fuqarolari yig‘inlarining nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman Statistika bo‘limi (U.Yerdjanov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Abdalov), tuman Ichki ishlar bo‘limi (M.Sherimbetov) va tegishli tashkilotlarga mazkur qarorda ko‘rsatilgan o‘zgarishlarni e’tiborga olish va tegishli idoraviy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish topshirilsin.

3. Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Atadjanov)ga bir hafta muddatda mazkur qaror bilan tasdiqlanayotgan mahalla nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish, mahalla va aholi xonadonlariga belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishda, lotin alifbosida yozilgan peshlavhalar o‘rnatilishini ta’minlash yuklatilsin.

4. Tuman Moliya bo‘limi (I.Bakkaev)ga peshlavhalarni tayyorlash uchun mablag‘ ajratish masalasini belgilangan tartibda hal qilish topshirilsin.

5. To‘rtko‘l tumani Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi (R.Shamuratov)ga:

- To‘rtko‘l tumanida tashkil etilgan 12 ta mahallalarining nomlarini Davlat soliq qo‘mitasi qoshidagi Kadastr agentligiga davlat reestri bazasiga kiritish uchun taqdim qilish topshirilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari To‘rtko‘l tuman Kengashining Sud-huquq masalalari hamda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

7. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari M.Bekchanovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **R.Shamuratov**

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tuman
Kengashining
2023 yil 12 apreldagi
VI-60-39-13-190-K/23-son qaroriga
1-ilova

To‘rtko‘l tumanida yangidan tashkil qilingan 12 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarininglarining tasdiqlangan nomlari

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning nomi
1.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Ziyokor
2.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Yashnaobod
3.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Nurliyo‘l
4.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Yakkatol
5.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Miskin
6.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Tozabo‘zyop
7.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Turkmanko‘li
8.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Yaxtilik
9.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Yangihayot
10.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Nurota
11.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Bazirgan
12.	Mahalla	To‘rtko‘l tumani	Nomsiz	Bahor